


45. Burchakli bo'lish

Yondosh mavzu:
sotuvchilar.

Son xonalari, bo'linuvchi,
bo'luvchi, bo'linma.



1. Juft raqamli qutilarni o'sish tartibida belgilang. Do'konning ombordagi zaxiralarini nazorat qiluvchi xodim qanday nomlanadi?



2. Hisoblang. Qaysi holatda bo'linmani topa olmadingiz yoki topishga qiynaladingiz?

$$600 : 30$$

$$700 : 7$$

$$720 : 9$$

$$820 : 10$$

$$3600 : 300$$

$$255 : 3$$

3. 825 soni 3 ga qanday bo'linganini tekshirib ko'ring. Ikkala usulni solishtiring. Ularning nimasi bir xil?

$$\begin{array}{r} 8 \text{ yuzl.} + 2 \text{ o'nl.} + 5 \text{ birl.} \quad | \quad 3 \\ - 6 \text{ yuzl.} \quad \quad \quad | 2 \text{ yuzl.} \quad 7 \text{ o'nl.} \quad 5 \text{ birl.} \\ \hline 2 \text{ yuzl.} + 2 \text{ o'nl.} \\ \quad - 22 \text{ o'nl.} \\ \quad \quad - 21 \text{ o'nl.} \\ \quad \quad \quad 1 \text{ o'nl.} + 5 \text{ birl.} \\ \quad \quad \quad \quad - 15 \text{ birl.} \\ \quad \quad \quad \quad \quad - 15 \text{ birl.} \\ \quad \quad \quad \quad \quad \quad 0 \end{array}$$

8	2	5	3		
-	6			2	7
	2	2			5
-	2	7			
		1	5		
-		1	5		
			0		

45. Burchakli bo'lish

Burchakli bo'lish algoritmi

1. Bo'linuvchining tarkibini o'rganib chiqamiz.

Bu sonda 7 ta yuzlik, 5 ta o'nlik va 6 ta birlik bor ekan.

2. To'liqsiz bo'linuvchini topamiz.

Bu sonda 7 ta yuzlik bor. 700 ni 4 ga qoldiq bilan bo'lish mumkin. Demak, 7 – to'liqsiz bo'linuvchi ekan.

3. To'liqsiz bo'linma bilan qoldiqni topamiz. To'liqsiz bo'linmani bo'linuvchining tagiga yozamiz. Qoldiqni esa to'liqsiz bo'linuvchining tagiga yozamiz.

$$7 : 4 = 1 \text{ (qoldiq 3)}$$

4. Qoldiqning yoniga keyingi xonadagi raqamni olib tushamiz.

5. Bo'linuvchida tushirilmagan xonalar qolmaguncha

3 – 4- bandlarni takrorlayveramiz.



To'liqsiz
bo'linuvchi

Qoldiq

To'liqsiz
bo'linma

7	5	6	4		
-	4				
	1	5			
	-	4			
		1	6		
		-	4		
			2		
			-	4	
				2	
				-	4
					0

4. Bo'lishdagi har bir amalni tushuntirib bajaring.

$$952 : 7$$

$$846 : 6$$

$$735 : 5$$

$$9\,436 : 7$$

5. Ushbu masalalarga ifodalar tuzib, ularni yeching.

a) Ekspeditor do'konlarga tovar tarqatadi. U 5 ta do'konga 8175 ta nonni teng taqsimlashi kerak. U oxirgi do'konga nechta non olib boradi?

b) Omborga kelgan 825 kilogramm un 3 qismga bo'lindi. Omborchi ulardan birini do'konga yubordi. Do'konga necha kilogramm un ketdi?

6. Tenglamalarni yeching.

$$x \cdot 2 = 3\,565 - 247$$

$$714 : y = 3\,852 - 3\,849$$



7. Jadvalga qarab, do'kon haydovchisi bir kunda necha litr benzin sarflaganini toping.

Bor edi	Ertalab sotib olindi	Kunduzi sotib olindi	Qoldi
27 l	15 l	26 l	7 l




8. Misollarni yechib, tegishli harflarni to'g'ri tartibda qo'ying. Tovarlarni, xaridorlarni o'rganib, tovarni kimga qanday qilib sotishni kim hal qiladi?

A	$63 \cdot 8 + 171$	L	$850 - 4\,200 : 7$	T	$897 - 121 \cdot 1$
G	$900 - 73 \cdot 4$	O	$702 - 720 : 9$	R	$315 + 562 : 1$
E	$356 + 61 \cdot 6$	M	$673 + 135 \cdot 0$	K	$1\,000 - 31 \cdot 10$

673	675	877	690	722	776	622	250	622	608
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----



9. Suratdagi narsalar muvozanatda turibdi. Ularning jami vazni – 256 gramm. Bunda tayoqcha va iplarning vazni hisobga olinmagan. Yulduzchaniing vaznini toping.



10. Burchakli bo'lishdan foydalanib, teskari amal – ko'paytirish yordamida bo'lishning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

$$\begin{array}{l} 468 : 3 \\ 812 : 7 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 912 : 4 \\ 810 : 6 \end{array}$$

$$\begin{array}{l} 984 : 8 \\ 835 : 5 \end{array}$$



11. 5 ta qutida 625 ta sovun bor. 7 ta qutida nechta sovun bo'ladi?